

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 16 - noyabr

407-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Yuk avtotransport vositalarini harakatlanishi ustidan nazorat qilish ishlarini
tashkillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi "Transport vositalarining vazn va hajm parametrlarini nazorat qilishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 337-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash va tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 342-son qarorlari ijrosini sifatli va to'laqonli ta'minlash maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasining 2023-yil 6-noyabrdagi 03/1835-sonli xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Beruniy tumani hududidagi A-380 avtomobil yo'lining 661 km qismida va Amudaryo tumani hududidagi 4R-160 avtomobil yo'lining 0,6 km qismlarida tashkil etilgan vazn nazorati punktlarida ishlar to'liq yakunlanganligi munosabati bilan, ish faoliyati belgilangan tartibda tashkil etilsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (B.Torebekov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi (Sh.Dauletiyarov) va Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi (B.Yusupov) transport vositalarining xavf-xatarsiz va uzluksiz harakatlanishini ta'minlash hamda vazn parametrlarini nazorat qilish maqsadida mazkur punktlarda belgilangan tartibda 24 soatlik nazorat o'rnatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov